

XOTIN-QIZLAR O‘RTASIDAGI HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISH VA SAMARALI PROFILAKTIKA QILISHNING BUGUNGI ZAMON QIYOFASI

*Samarqand shahri bo‘yicha IIO FMB 4-son IIB XQMB inspektori leytenant
Ibodullayeva Zumrad Ibodullayevna*

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali muallif xotin-qizlar o‘rtasidagi huquqbuzarlik va jinoyatchilik tushunchasi, bugungi kundagi holati, statistikasi, huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi qonunchilik hujjatlari, xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda xotin qizlar masalalari bo‘yicha inspektorining kasb madaniyati va kasbiy mahorati, hamda xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish va profilaktika qilishda vujudga keladigan kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarining ilmiy taxliliga to‘xtalib o‘tgan.*

Kalit so‘zlar: *xotin-qizlar tushunchasi, xotin-qizlar huquqbuzarligi va jinoyatchiligi, xotin-qizlar huquqbuzarligi va jinoyatchiligining profilaktikasi, XQMB (xotin-qizlar masalalari bo‘yicha) inspektorlarining kasb madaniyati, XQMB inspektorining kasb mahorati.*

Xotin-qizlar huquqbuzarligi avvalo, ayol jinsiga mansub bo‘lgan shaxslar tomonidan sodir etilganligi uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning sodir etilishidir;¹

Xotin-qizlar jinoyatchiligini muhokama qilishdan avval, jinoyatchilikka to‘xtalib o‘tsak. Ushbu Kodeks bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.²

Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, hozirgi kunda xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar va o‘z o‘rnida jinoyat jabrlanuvchisiga aylanib qolayotgan xotin-qizlar soni respublikamiz miqyosida oshib borayotganligi ming afsuski, o‘sib bormoqda. Xotin-qizlar jinoyatchiligi va huquqbuzarligining oshish sabablari, jamiyatda yangi zamonga intilish oqibatida yuzaga kelgan bo‘shliqning o‘z tubiga huquqiy bilim va huquqiy ma‘daniyati yetarli darajada bo‘lmagan, aqli raso xotin-qizlarni tortib olayotganligi, shu bilan birgalikda, oilada yetarli darajada nazoratning yo‘qligi, ijtimoiy tarmoqlardagi shahvoniy video materiallar ta‘siriga tushish, ma‘naviy bo‘shliqning yuzaga kelishi natijasida jamiyatda xotin-qizlarning ma‘rifati va madaniyati zamon talablariga nisbatan sustlashganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Ushbu maqolada faqat xotin-qizlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar va jinoyatlar muhokamasiga to‘xtalib o‘tayotganligimiz sabab, faqat xotin-qizlar huquqbuzar ekan degan fikrga kelish xato, albatta. Biroq jamiyatimizda xotin-qizlar o‘rtasida jinoyatchilik oshib borayotganligi sizni bizni havotirga solmasdan qo‘ymaydi, har bir befarq bo‘lmagan odam, albatta, bu mavzuga jiddiy qarashi turgan gap.

Xo‘sh aynan nima sababdan ushbu jinoyatlar soni ortmoqda, nima sababdan opa-singillarimizning jinoyat jabrdiydalari sifatida soni ortib bormoqda?

Amaliy tajribamga asoslangan holda shuni ta‘kidlab o‘ta olamanki, oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlanayotgan xotin-qizlarning qariyb 60 foizga yaqini tazyiq va zo‘ravonlik jabrlanuvchisi bo‘lishi uchun o‘zlari imkoniyat yaratib berishadi. Xalqimizda qars ikki qo‘ldan chiqadi degan naql bejiz

aytilmagan, haqiqatdan ham agar opa-singillarimiz o‘zlari tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanishlariga imkoniyat yaratib bermasalar, mazkur ko‘rsatkich birmuncha kamaygan, jamiyatda esa oilalardagi ajrimlar kamaygan bo‘lar edi. Bu bilan aynan nima demoqchimiz, agar oilada o‘zaro kelishmovchilik kelib chiqadigan bo‘lsa, ushbu holatda ayol kishi biroz og‘ir bosiqlik qilib, vaziyatni yumshatishga harakat qiladigan bo‘lsa o‘ylaymanki, oiladagi nizoli vaziyat birmuncha yumshashi, hatto bartaraf etilishiga olib kelinadi. Yoxud, oilalarda vujudga keladigan nizoli holatlar haqida ko‘plab holatlarda hech kimga aytmaslik, vaziyatni “bosti-bosti” qilish holatlari ko‘plab uchraydi. Mazkur holatlarda kasalni yashirsang isitmasi oshkor qiladi deganlaridek, bir necha bor surunkali tazda sodir etilgan tazyiq va zo‘ravonliklar so‘ngida bir jinoyatni keltirib chiqarish holatlari ko‘plab kuzatilmoqda. Xo‘sh bunday muammolarni yechimi qanday?

Shu o‘rinda xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishning bugungi zamon qiyofasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, respublikamizda xotin-qizlar huquqlari va erkinliklari ta‘minlanishi va qonuniy manfaatlari himoyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-56I son qonuni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zo‘rluk ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5116 son qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Buxoro viloyatini xotin-qizlar bilan ishlash yo‘nalishida namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 14-iyundagi 459-son qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 4-yanvardagi 3-son qarori va boshqa qator qonunchilik hujjatlari so‘zimizning yorqin isboti bo‘la oladi. Shuningdek, Respublikamizda xotin-qizlar o‘ratsida huquqbuzarlik va jinoyatchilik holatlarini oldini olish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Ichki ishlar organlari tuzilmalari tarkibida Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektor lavozimining joriy etilishi ham, bu boradagi samarali islohotlarning bir aksi bo‘ldi desak adashmagan bo‘lamiz. Negaki, oilalardagi nizolarni bartaraf etish chog‘ida IIO xodimlari, ayniqsa profilaktika inspektorlariga tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar dardlarini, o‘zini qiynayotgan muammolarni ochiq-oydin ayta olmasligi va bu holat esa, ko‘p hollarda oilalarda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan opa-singillarimizni hech kimga murojaat qilmasligi oqibatida ular soni oshib ketishi kuzatilganligini ko‘rib o‘tishimiz mumkin. XQMB(xotin-qizlar masalalari bo‘yicha) inspektorlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar o‘z samarasini berib kelmoqda, albatta. So‘zimiz isboti sifatida, respublika miqyosida ajrim yoqasidagi oilalar soni kamayganligi, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabralangan xotin-qizlar himoya orderlari bilan ta‘minlanib ularning kelgusida turli xildagi tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanishlarini oldi olinayotganligi holatlarini keltirib o‘ta olamiz.

Yuqorida to‘xtalib o‘tgan bir qator muammolarimizni bartaraf etish va kelgusida bunday muammolar jamiyatda kelib chiqmasligini oldini olish yuzasidan, quyidagi qator takliflarni keltirib o‘tamiz:

Taklif: 1. Xotin-qizlar o‘rtasida erta turmush holatlarini oldini olishga qaratilgan tezkor profilaktik tadbirlarni hamkor tashkilotlar bilan birgalikda samarali tashkil etib, ijrosi yuzasidan to‘liq nazoratni amalga oshirish;

2. Xotin-qizlar o‘rtasida turmush oldi ma‘naviyat darslarini tashkil etib, respublika miqyosida turmush qurish ostonasida bo‘lgan opa-singillarimizga yo‘riqnoma sifatida qo‘llanmalar taqdim etish,

shuningdek ularning katta hayot ostonasida ekanligi, turmushning o‘ziga yarasha mushti bor ekanligi, sabr-toqat, xushmuomalalik, shu bilan birgalikda yetti o‘lchab bir kesish lozimligi kabi bir qator tushunchalarini o‘rgatishni hayot yo‘li o‘rnak olishga arziydigan, tajribali mutaxassislar va respublikamizda ko‘zga ko‘ringan lider ayollar tomonidan master klas darslari sifatida tashkil etib borish;

3. HMQO va sog‘liqni saqlash organlari, shuningdek boshqa qator hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikni oldini olish va uni barvaqt samarali profilaktika qilish yuzasidan targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini muntazam tashkil etib borish va hamkor tashkilotlar bilan birgalikda turli ko‘rik tanlovlar tashkillashtirish natijasida jamiyatda xotin-qizlar faolligini oshirish;

4. XQMB(xotin-qizlar masalalari bo‘yicha) inspektorlari vazifa va vakolatlarini kengaytirish orqali profilaktika samaradorligini oshirish va mutasaddi tashkilotlarda ijrochilik intizomini kuchaytirish.

5. Xotin-qizlar o‘rtasida ularning huquqiy ong va ma‘daniyatini oshirish maqsadida malakali yuristlar va psixologlar tomonidan haftaning ma‘lum bir kunlarida “Huquqiy bilimdonlik soat”larini muntazam tashkil etish.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlab o‘tishimiz joizki, Respublikamizda xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatdan jabrlangan xotin-qizlar sonini kamaytirish va ular o‘rtasida profilaktik chora-tadbirlarini samarali tashkil qilib, jamiyatda ularning faolligini oshirish va bu bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini samaradorligini ta‘minlash har birimizning burchimiz hisoblanadi. Shunday ekan, jamiyatimizning har bir mas‘uliyatli a‘zosi, kelajagiga befarq bo‘lmagan har bir xotin-qiz bu sohada o‘zining salmoqli hissasini qo‘shib, bor kuch g‘ayratini safarbar etmog‘i lozim. Negaki bu biz uchun ham vazifa ham bugungi kun talabidir. Shunday ekan barchamiz bu borada befarq bo‘lmasdan, qo‘limizdan kelgancha kuch va shijoatimizni ayamasdan o‘z hissamizni qo‘shaylik. Aziz opa-singillarimiz, oila tayanchi, kelajagimiz me‘morlari ekanligini unutmaylik. Zero ertangi kun bizniki, marra bizniki, o‘z kelajagimiz uchun befarq bo‘lmaylik.